

Barqaror rivojlanish strategiyalarida inson kapitalining oʻrni va ahamiyati

Zarnigor Gayratovna Aliyeva
Shaxnoza Mahmudjonovna Avezova
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirishda inson kapitalining oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Inson kapitali iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida koʻrib chiqiladi. Tadqiqotda taʼlim, sogʻliqni saqlash va mehnat unumdorligi kabi inson kapitali tarkibiy elementlarining barqaror rivojlanish jarayonlariga taʼsiri ochib beriladi. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqola natijalari barqaror rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishda inson kapitalini ustuvor yoʻnalish sifatida belgilash zarurligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: barqaror rivojlanish, inson kapitali, iqtisodiy oʻsish, taʼlim va malaka, mehnat unumdorligi, innovatsion rivojlanish, investitsiyalar, ijtimoiy barqarorlik

The role and importance of human capital in sustainable development strategies

Zarnigor Gayratovna Aliyeva
Shakhnoza Mahmudjonovna Avezova
Bukhara State Technical University

Abstract: This article analyzes the role and importance of human capital in the formation and implementation of sustainable development strategies. Human capital is considered one of the key factors of economic growth, social stability, and innovative development. The study reveals the impact of human capital components such as education, healthcare, and labor productivity on sustainable development processes. In addition, the paper substantiates the possibilities of achieving long-term economic efficiency through increased investment in human capital. The results emphasize the necessity of prioritizing human capital within sustainable development strategies.

Keywords: sustainable development, human capital, economic growth, education and skills, labor productivity, innovative development, investment, social stability

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida barqaror rivojlanish masalasi davlatlar va hududlar uchun ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, ekologik muvozanatni saqlash va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishni ham nazarda tutadi. Ushbu jarayonlarda ishlab chiqarish omillari orasida inson kapitalining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Inson kapitali tushunchasi shaxslarning bilim, malaka, tajriba va salomatlik darajasi bilan belgilanib, u iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikning muhim manbai hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda moddiy resurslar va texnologiyalar muhim bo'lsa-da, aynan inson kapitalining sifati va rivojlanganlik darajasi barqaror rivojlanish strategiyalarining muvaffaqiyatini belgilab beradi. Shu sababli inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy tadqiqotlar inson kapitalining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi rolga alohida e'tibor qaratmoqda. Ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va mehnat bozorining samaradorligi barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismlariga aylangan. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalining o'rnini va ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi barqaror rivojlanish strategiyalarida inson kapitalining o'rnini aniqlash hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili: Barqaror rivojlanish va inson kapitali mavzusi so'nggi yillarda iqtisodiyot va rivojlanish tadqiqotlarining markaziy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro darajada inson kapitalining iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri keng o'rganilgan. Becker (1993) inson kapitalini shaxslarning bilim, malaka, tajriba va salomatlik kabi resurslarining yig'indisi sifatida ta'riflab, uning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka bevosita ta'sirini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalini rivojlantirish barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

UNDP (Human Development Reports, 2020) hisobotida inson kapitali va barqaror rivojlanishning o'zaro bog'liqligi ta'kidlangan. Ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi va ishchi kuchining malaka darajasi mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, World Bank (Human Capital Index, 2021) hisobotida inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish orqali mamlakatlar o'z iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Sachs (2015) o'zining "The Age

of Sustainable Development” asarida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarini birlashtirish zaruriyatini, shuningdek, inson kapitalining iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi markaziy rolini yoritadi. OECD (2019) tadqiqotlarida esa ta’lim va malaka oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion va texnologik rivojlanish bilan bog‘liqligi, shuningdek, bu jarayonning iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanish strategiyalariga integratsiyalanishi batafsil ko‘rib chiqilgan.

Mahalliy tadqiqotlar ham inson kapitalining barqaror rivojlanishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. G‘ulomov va Vahobov (2020) O‘zbekiston iqtisodiyotidagi inson kapitali ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ishchi kuchining samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘shishga erishish imkoniyatlarini o‘rganishgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Innovatsion Rivojlanish vazirligi nashrlarida inson kapitalini rivojlantirish strategiyalari va ularni barqaror rivojlanish siyosatiga integratsiyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda inson kapitali va barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganiladi: birinchisi - iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish orqali barqaror rivojlanishga erishish, ikkinchisi - ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta’minlash orqali uzoq muddatli rivojlanish. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson kapitali barqaror rivojlanish strategiyalarining markaziy elementi sifatida qaralishi kerak. Ta’lim, malaka, sog‘liqni saqlash va mehnat unumdorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat va investitsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar inson kapitali va barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda.

METODOLOGIYA: Ushbu tadqiqot barqaror rivojlanish strategiyalarida inson kapitalining o‘rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari kombinatsiyasi qo‘llanildi, bu esa mavzuni keng qamrovda va ishonchli tahlil qilish imkonini beradi. Ma’lumotlar manbalari rasmiy va ishonchli bo‘lib, barcha statistika va adabiyotlar iqtibos qilingan. Tadqiqot natijalari ilmiy asoslangan va barqaror rivojlanish strategiyalari bilan bog‘liq tavsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitali barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson kapitalining asosiy elementlari - ta’lim darajasi, sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanganligi va mehnat unumdorligi - iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba (UNDP, World Bank) shuni tasdiqlaydiki, inson kapitaliga yuqori darajada investitsiya kiritgan mamlakatlarda

uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'ladi. Jumladan, Human Capital Index (HCI) va Human Development Index (HDI) ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan davlatlarda innovatsion faollik va mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan.

O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi inson kapitali sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq inson kapitalining barqaror rivojlanish strategiyalariga to'liq integratsiyalanishi uchun mehnat bozorida malakali kadrlar ulushini oshirish va ta'lim tizimini iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish zarur.

Inson kapitalining barqaror rivojlanishga ta'sir mexanizmi (sxema)

Quyidagi sxema inson kapitalining barqaror rivojlanish strategiyalariga ta'sir mexanizmini ifodalaydi:

Inson kapitaliga investitsiyalar



Ta'lim sifati ↑ Sog'liqni saqlash ↑ Malaka va ko'nikmalar ↑



Mehnat unumdorligi va innovatsion faollik ↑



Iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik ↑



Ijtimoiy barqarorlik va farovonlik ↑

BARQAROR RIVOJLANISH

Mazkur sxema shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar orqali barqaror rivojlanish natijalarini shakllantiradi. Bu jarayon tizimli va uzoq muddatli xarakterga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tadqiqot jarayonida inson kapitalining barqaror rivojlanish strategiyalaridagi o'rni empirik ma'lumotlar asosida baholandi. Tahlil uchun xalqaro va milliy statistik manbalarda e'lon qilingan ko'rsatkichlar umumlashtirilib, 2018-2023 yillar oralig'idagi dinamik o'zgarishlar o'rganildi. Xususan, BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlardan foydalanildi (1-jadval).

Ta'lim xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o'sishi inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi. Mazkur omil mehnat unumdorligi indeksining oshishida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, bu inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Natijalar shuni anglatadiki, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar nafaqat ijtimoiy farovonlikni oshiradi, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Shu bois, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda inson kapitali markaziy omil sifatida qaralishi zarur.

1-jadval

O'zbekistonda inson kapitali va barqaror rivojlanishga oid asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi (2018-2023 yy.)

Yil	HDI	Ta'lim xarajatlari (% YAIM)	Mehnat unumdorligi indeksi
2018	0,710	5,1	100
2019	0,714	5,3	103
2020	0,720	5,6	101
2021	0,726	5,8	104
2022	0,731	6,0	107
2023	0,735	6,2	110

Manba: UNDP (2020-2023), World Bank (2023), O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida inson kapitali bilan bog'liq ko'rsatkichlar barqaror ijobiy tendensiyanı namoyon etgan. Inson rivojlanish indeksi (HDI)ning bosqichma-bosqich oshib borishi mamlakatda ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgan resurslar samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, inson kapitalini rivojlantirish faqat iqtisodiy o'sishga emas, balki ekologik barqarorlikka ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki bilimli va malakali aholi resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etishga ko'proq moyil bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida inson kapitalining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Inson kapitali iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lib, uning sifati va rivojlanganlik darajasi barqaror rivojlanish strategiyalarining samaradorligini belgilaydi. Tadqiqotda inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari - ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat unumdorligi - barqaror rivojlanish jarayonlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar qisqa muddatda moliyaviy xarajatlar sifatida qaralishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, inson kapitali ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish barqarorligi, mehnat unumdorligi va innovatsion faollik darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Bu holat inson kapitalini rivojlantirish barqaror rivojlanish strategiyalarining ustuvor yo'nalishi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, inson kapitali va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ham ochib berdi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi aholi bandligi, daromadlar darajasi va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi va barqaror rivojlanish uchun qulay muhit shakllanadi. Shu bilan birga, bilimli va malakali aholi ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishi orqali ekologik barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar inson kapitalini rivojlantirish borasida muayyan ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq barqaror rivojlanish strategiyalarining samaradorligini oshirish uchun inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni yanada tizimli va kompleks tarzda amalga oshirish zarur. Xususan, ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish hamda sog'liqni saqlash tizimining sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi lozim.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy va strategik takliflarni ilgari surish mumkin:

- barqaror rivojlanish strategiyalarida inson kapitalini rivojlantirishni alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilash;
- ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltiriladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish, ularni iqtisodiyotning real sektor ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish;
- mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish;
- inson kapitalini baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish orqali strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy yondashuvni kuchaytirish.

Umuman olganda, inson kapitalini rivojlantirish barqaror rivojlanish strategiyalarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari inson kapitaliga asoslangan rivojlanish modelini shakllantirish va uni iqtisodiy siyosatga integratsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker G.S. Human capital : a theoretical and empirical analysis, with special reference to education. - Chicago : University of Chicago Press, 1993. - 412 p.
2. Schultz T.W. Investment in human capital // The American Economic Review. - 1961. - Vol. 51, № 1. - P. 1-17.
3. Sachs J.D. The age of sustainable development. - New York : Columbia University Press, 2015. - 543 p.

4. Sen A. Development as freedom. - Oxford : Oxford University Press, 1999. - 366 p.
5. Mankiw N.G., Romer D., Weil D.N. A contribution to the empirics of economic growth // The Quarterly Journal of Economics. - 1992. - Vol. 107, № 2. - P. 407-437.
6. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic growth. - Cambridge, MA : MIT Press, 2004. - 672 p.
7. Acemoglu D., Autor D. What does human capital do? // Journal of Economic Literature. - 2012. - Vol. 50, № 2. - P. 426-463.
8. United Nations. Transforming our world: the 2030 agenda for sustainable development. - New York : United Nations, 2015. - 35 p.
9. United Nations Development Programme. Human development report 2020: the next frontier - human development and the anthropocene. - New York : UNDP, 2020. - 384 p.
10. United Nations Development Programme. Human development report 2021/2022: uncertain times, unsettled lives. - New York : UNDP, 2022. - 275 p.
11. World Bank. The human capital index 2020 update: human capital in the time of COVID-19. - Washington, DC : World Bank, 2021. - 120 p.
12. World Bank. World development report 2023: jobs. - Washington, DC : World Bank, 2023. - 300 p.
13. Organisation for Economic Co-operation and Development. Education at a glance 2019: OECD indicators. - Paris : OECD Publishing, 2019. - 472 p.
14. Organisation for Economic Co-operation and Development. Skills strategy implementation guidance for sustainable growth. - Paris : OECD Publishing, 2020. - 230 p.
15. G'ulomov S.S., Vahobov A.V. Inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2020. - № 4. - B. 15-25.
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. - Toshkent, 2022. - 180 b.
17. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Barqaror rivojlanish strategiyasi va inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari. - Toshkent, 2023. - 95 b.
18. Todaro M.P., Smith S.C. Economic development. - 13th ed. - New York : Pearson Education, 2020. - 864 p.